

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.FM/T.09.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**ABDIKARIMOV NABIJON IBADULLAYEVICH**

**DEVORI DEFORMATSIYALANUVCHI QUVUR VA KANALLARDA  
ELASTIK QOVUSHOQ SUYUQLIKNING PULSLI OQIMINI TADQIQ  
QILISH**

**01.02.05 – Suyuqlik va gaz mexanikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
Physico-mathematical Sciences**

**Abdikarimov Nabijon Ibadullayevich**

Devori deformatsiyalanuvchi quvur va kanallarda elastik qovushoq suyuqlikning  
pulslı oqimini tadqiq qilish.....3

**Абдикаримов Набижон Ибадуллаевич**

Исследование пульсового течения вязкоупругой жидкости в трубах и каналах  
с деформируемой стенкой.....22

**Abdikarimov Nabijon Ibadullayevich**

Studies on the pulsatile flow of viscoelastic fluids in pipes and channels with  
deformable walls.....41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.FM/T.09.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**ABDIKARIMOV NABIJON IBADULLAYEVICH**

**DEVORI DEFORMATSIYALANUVCHI QUVUR VA KANALLARDA  
ELASTIK QOVUSHOQ SUYUQLIKNING PULSLI OQIMINI TADQIQ  
QILISH**

**01.02.05 – Suyuqlik va gaz mexanikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/FM1078 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar**

**Navruzov Kuralbay**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Maxmudov Jamol Maxmud o‘g‘li**

fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

**Xoliyarov Erkin Chorshanbiyevich**

fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot**

**O‘zR FA M.T. O‘rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.FM/T.09.03 raqamli Ilmiy kengashning «17» aprel 2026-yil soat 15-00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks: faks: (+99866) 239-11-40, 239-12-47, e-mail: [devonxona@samdu.uz](mailto:devonxona@samdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (108-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-17-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2026-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)



*[Handwritten signatures in blue ink]*

**R.I. Xalmuradov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**O‘.A. Nishonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**B.X. Xo‘jayorov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-  
matematika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda sanoatning turli tarmoqlarida, xususan, neft-gaz, kimyo, oziq-ovqat va gidrotexnika sohalarida qo'llanilayotgan texnologik jarayonlarni takomillashtirish muhandislik oldiga dolzarb gidromexanik masalalarni yechishni taqozo qilmoqda. Shunday masalalar qatoriga deformatsiyalanuvchi devorli kanal va quvurlarda nonyuton suyuqliklarining pulsi oqimlarini modellashtirish, energiya tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqish va suyuqlik sarfini optimal taqsimlash haqidagi masalalar kiradi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda, masalan Yaponiya, AQSh, Xitoy, Rossiya va Germaniya kabi davlatlarda, gidrotexnik inshootlar va texnologik tizimlarda suyuqliklarning reologik xususiyatlarini hisobga olgan holda oqim dinamikasini hisoblashga, tizimlarning samaradorligini oshirishga hamda yangi matematik modellarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda, bugungi kunda, murakkab tarkibli muhitlarni tashishda qo'llaniladigan quvur o'tkazgichlarning, jumladan elastik va plastik xossaga ega bo'lgan silindrik quvurlarning pulsi bosim ostidagi chidamliligini ta'minlash hamda ulardagi oqim jarayonlarini sonli tahlil qilishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuning uchun, zamonaviy fan va texnikaning turli sohaları tomonidan, suyuqlikning relaksatsiya va qovushoqlik xususiyatlarini e'tiborga olib, devori deformatsiyalanuvchi quvurlarda nonyuton suyuqlik oqimining takomillashtirilgan matematik modellarini yaratish va gidrodinamik jarayonlarni optimallashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Tadqiqotchilarning asosiy maqsadi energiya samaradorligini oshirish va transport xarajatlarini kamaytirishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, polimer eritmalar, burg'ulash suyuqliklari va fiziologik suyuqliklarning (qon, so'lak) murakkab oqimlarini tadqiq qilishga, ayniqsa pulsatsiyalanuvchi oqimlardagi noqulay tebranishlarni so'ndirish mexanizmlarini tahlil qilishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda xalq xo'jaligining turli sohalarida, xususan qishloq xo'jaligida ekinlarni tomchilatib va egatlab sug'orish tizimlarini takomillashtirish, kompozit materiallardan tayyorlangan quvurlarda suyuqlik harakatini hisoblashning matematik modellarini yaratish va amaliyotga tadbiiq etish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, "Yirik ishlab chiqarish korxonalarida quvvatlarni modernizatsiya va rekonstruksiya qilish orqali energiyani tejash va samaradorlikni oshirish bo'yicha texnik siyosatni ishlab chiqish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Qo'yilgan ushbu masalalarni yechishda, xususan, gidrotexnika inshootlarining chidamliligini oshirish, nonyuton suyuqliklarining reologik xossalarini va quvur devorlarining deformatsiyasini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni hamda mazkur faoliyat sohasiga tegishli boshqa

<sup>1</sup>me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

### **Muammoning o'rganilganlik darajasi.**

Hozirgi vaqtda devori deformatsiyalanuvchi quvur va kanallarda elastik qovushoq suyuqliklarning pulslil oqimini devori deformatsiyasini va suyuqlikning murakkab reologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, matematik modelini yaratish, hisoblash algoritmlarini tuzish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Xalqaro reologiya jamiyatida (The Society of Rheology, SR), Massachusetts texnologiya institutida (Massachusetts Institute of Technology) (AQSH), Britaniya reologik jamiyatida (British Society of Rheology, ESR), Oksford universitetida (University of Oxford), Kembridj universitetida (Cambridge University), Manchester universitetida (University of Manchester) (Buyuk Britaniya), Germaniya reologiya jamiyatida (German Rheological Society, DRG) (Germaniya), Hindiston reologiya jamiyatida (Indian Society of Rheology, ISR), Avstraliya reologiya jamiyatida (Australian Society of Rheology, ASR), Rossiya reologiya jamiyati, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida (RF), O'zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida (O'zbekiston) olib borilmoqda va bu yo'nalishda katta ilmiy natijalarga erishilmoqda.

Siqilmaydigan muhitga bog'liq bo'lgan tadqiqot ishlari ilk marotaba I.S.Gromekaning ilmiy tadqiqot ishida elastik quvurlarda suyuqliklarning to'liqinsimon oqimi bir o'lchovli qo'yilishida o'rganilgan bo'lsa, keyinchalik kanal va silindrik quvurlarda Nyuton va nonyuton suyuqliklarning nostatsionar, tebranma laminar va turbulent oqimlari U.L.Ulkinson, K.Trusdell, Dj.Astarita, Dj.Marruchchi, Dj.F.Richardson, P.M.Ogibalov, A.X.Mirzadjanzade, Z.P.Shulman, B.M.Xusidlarning ilmiy tadqiqot ishlarida rivojlantirilgan. Bu sohada hozirgi davrda xorij olimlaridan A.I. Ageev, E.I.Mogilevskiy, Z.Ding, R.Bali, N.Gupta, Ye.P.Valuyeva, L.L.Ferras, J.M.Nobrega, L.Fusi, Z.Sheidaei, R.P.Chobra va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlar olib borilmoqda. O'zbekistonlik olimlardan esa J.F.Fayzullayev, J.A.Akilov, B.X.Xo'jayorov, K.Sh.Latipov, O.I.Umarov, K.Navruzov, Z.M.Malikov, S.I.Xudaykulov va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borib, ijobiy natijalarga erishib kelmoqda.

Ammo devori deformatsiyalanuvchi quvur va kanallarda Nyuton suyuqliklar harakatini o'rganish masalalari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilganiga qaramasdan, hozirgi kunda devori deformatsiyalanuvchi quvur va kanallarda elastik qovushoq suyuqliklarning pulslil oqimi masalalari yetarli darajada tadqiq qilinmagan va amaliyotga to'laqonli tatbiq etilmagan.

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Urganch davlat universiteti "Amaliy matematika" kafedrasida ilmiy-tadqiqotlar rejasiga mos holda OT-F4-04(05) "Material noxiziqli evolyutsion tenglamalarni yechishni spektral usulini qo'llash. Yurak tomir sistemasi biomexanikasi" (2017-2020 yy.) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida va "Matematik injiniring" kafedrasida "Nonyuton suyuqliklar mexanikasi tadqiqotlari" ilmiy rejasi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Devori deformatsiyalanuvchi kanal va silindrik quvurlarda nonyuton suyuqliklarning modellaridan foydalangan holda elastik qovushoq suyuqliklarning pulsi oqimlarini kontakt masalalar asosida shakllantirish va ularni analitik usulda yechishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

devori deformatsiyalanuvchi kanal va silindrik quvurlarda elastik qovushoq suyuqlikning pulsi oqimlarini kontakt masalalari ko'rinishida yechishda, devor deformatsiyasi differentsial tenglamalari bilan elastik qovushoq suyuqliklarning harakati differentsial tenglamalarini birgalikda sistema ko'rinishida shakllantirish;

shakllantirilgan kontakt masalalarini analitik usulda yechish orqali suyuqlik tezliklari, suyuqlik sarfi va uzatma funksiyasining o'zgarishni aniqlash uchun formulalar keltirib chiqarish;

keltirilib chiqarilgan formulalar asosida kanal va silindrik quvurlarda elastik qovushoq suyuqliklarning pulsi oqimlarida suyuqliklarning elastik xususiyatini inobatga olgan holda gidrodinamik qarshilikning tebranishlar chastatasiga bog'liq ravishda o'zgarishini tadqiq qilish;

elastik qovushoq suyuqlik reologik xarakteristikalarining kanal va silindrik quvur devorlarida elastik qovushoq suyuqliklarning pulsi oqimlarida hosil bo'ladigan puls to'lqining tarqalish tezligi va uning so'nish dekrementlariga ta'sirini o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida devori deformatsiyalanuvchi kanallarda va silindrik quvurlarda elastik qovushoq suyuqlikning pulsi oqimlari qaraladi.

**Tadqiqotning predmetini** devori deformatsiyalanuvchi quvurlarda elastik qovushoq suyuqliklarning pulsi oqimlarining matematik modellari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari** devori deformatsiyalanuvchi quvurlarda elastik qovushoq siqilmaydigan suyuqlikning tebranuvchan oqimlar masalalarini yechishda matematik fizika tenglamalarini yechish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bir jinsli bo'lmagan holat uchun klassik tipdagi elastik qovushoq suyuqliklarning takomillashtirilgan reologik modellari ishlab chiqilgan hamda ular asosida suyuqlik harakatining asosiy differentsial tenglamalari shakllantirilib, quvurlar orqali elastik qovushoq suyuqliklarni uzatish masalalarini yechishning soddalashtirilgan variantlari ishlab chiqilgan;

devori deformatsiyalanuvchi kanal va silindrik quvurlarda elastik qovushoq suyuqlikning pulsi oqimlariga oid yangi masalalar tegishli chegaraviy shartlar asosida shakllantirilgan hamda ularning analitik yechimlari yordamida tezliklar

taqsimoti, suyuqlik sarfi va uzatma funksiyasining o'zgarishini aniqlash imkonini beruvchi hisob formulalari keltirib chiqarilgan;

elastik qovushoq suyuqliklarning pulсли oqimlarida gidrodinamik qarshilikning tebranishlar chastotasiga bog'liq ravishda o'zgarishi aniqlangan bo'lib, bunda suyuqlikning elastik xususiyati hisobiga qarshilikning ma'lum (ikki va to'rt sonlari oralig'idagi) qiymatlarda kamayishi ilmiy jihatdan isbotlangan;

kanal va silindrik quvurlarning deformatsiyalanuvchi devorlari bo'ylab tarqaladigan puls to'lqinlarining tezligi va ularning so'nish dekrementlari elastik qovushoq suyuqlikning reologik xarakteristikalari ta'siri ostida o'zgarishi qonuniyatlari aniqlangan;

deformatsiyalanuvchi quvurlarda devor puls to'lqinining tarqalish tezligini o'lchash orqali quvur devorining elastiklik koeffitsiyentini aniqlash usuli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yirik arterial qon tomirlaridagi pulсли oqimlarni matematik modellashtirishda qonning elastik qovushoq reologik xususiyatlarini inobatga oluvchi hisoblash usullari takomillashtirilgan va ularni qo'llash imkoniyatlari asoslangan;

elastik qovushoq reologik model asosida pulsatsiyalanuvchi oqimning gidrodinamik tavsifnomalarini va bosim yo'qolishini hisoblash uchun matematik tenglamalar algoritmi ishlab chiqilgan;

arterial qon aylanish tizimida qonning elastik qovushoqlik xususiyatlarini hisobga olgan holda, pulсли oqim samaradorligini baholash va gidravlik qarshilikni optimallashtirish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Devori deformatsiyalanuvchi kanal va silindrik quvurlardagi elastik qovushoq suyuqlikning pulсли oqimlarini tadqiq etish natijasida olingan natijalarning ishonchliligi, xususi holda, Nyuton suyuqlik harakatiga o'tishdagi natijalar, shuningdek bu sohada tadqiqot ishlari olib borgan J.R.Uomersli va E.Laytftularning tadqiqot ishi natijalari bilan mos kelishi orqali asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati devori deformatsiyalanuvchi kanal va silindrik quvurlarda elastik qovushoq suyuqliklarning pulсли oqim masalalarini analitik usulda yechish, xususi holda, bu yechimlarni Nyuton suyuqliklari natijalari bilan taqqoslash orqali yangi gidrodinamik qonuniyatlarni aniqlash bilan tushuntiriladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, quvurlarda elastik-qovushoq suyuqliklarning tebranma harakatida puls to'lqinlarining tarqalish tezligini aniqlash orqali quvur devori elastiklik modulining qiymatini aniqlash imkoni yaratilgani bilan ifodalanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Elastik qovushoq suyuqliklarning deformatsiyalanuvchi quvurlardagi pulсли harakatlarini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

arterial tomirlarda qonning pulсли harakatini modellashtirish va unga mos gidrodinamik masalalarni yechish usullari Urganch davlat universitetida 2017–2020-yillarda bajarilgan OT-F4-04(05) “Spektral usulni matritsaviy nochiziqli evolyutsion tenglamalarni yechishga tatbiqlari, yurak-qon tomir tizimining

biomexanikasi” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (Urganch davlat universitetining 2025-yil 30-apreldagi 02-84/5-sonli ma’lumotnomasi). Natijada arterial tizimni matematik modellashtirishga doir dasturiy vosita yordamida olingan puls to’lqinlarining tarqalish va so’nish qonuniyatlari asosida arterial tomirlardagi gidrodinamik qarshiliklarni aniqlash imkonini bergan;

devori deformatsiyalanuvchi quvur va kanallarda elastik-qovushoq suyuqliklarning pulsi oqimi masalalarini yechish algoritmlari Qarshi davlat universitetida 2018–2020-yillarda bajarilgan OT-Atex-2018-340 «Ikki tezlikli muhit dinamikasining amaliy geofizik masalalarini nazariy va sonli tadqiq etish» mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 9-martdagi 03/672-sonli ma’lumotnomasi). Natijada murakkab gidrodinamik tizimlardagi to’lqin jarayonlarini sonli modellashtirish hamda elastik devorli quvurlarda suyuqlik uzatish samaradorligini tahlil qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 10 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, shu jumladan 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan bo’lib, jumladan O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa fanlari doktorlik dissertatsiyalari (PhD) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola (6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda) chop qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va 107 ta foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Dissertatsiyaning kirish qismida** tanlangan mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqot ob’ekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ishning yangiliklari, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganlik holati hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Elastik qovushoq suyuqlik va devor deformatsiyasi harakati differensial tenglamalarini tuzish hamda ularni soddalashtirish usullari”** deb nomlangan birinchi bobida quvurlar devori deformatsiyasining differensial tenglamalari simmetrik ortotropik shaklda keltirilgan:

$$\begin{cases} M_1 \frac{\partial^2 u_x}{\partial t^2} + c_1 \frac{\partial u_x}{\partial t} + k_1 u_x = -\mu \left( \frac{\partial \mathcal{G}_x}{\partial r} + \frac{\partial \mathcal{G}_r}{\partial x} \right)_{r=R} + \frac{\partial u_r}{\partial x} \frac{T_{20} - T_{10}}{R} + \frac{\partial \sigma_2}{\partial x}, \\ M_1 \frac{\partial^2 u_r}{\partial t^2} + c_2 \frac{\partial u_r}{\partial t} + k_2 u_r = \left( P - 2\mu \frac{\partial \mathcal{G}_r}{\partial r} \right)_{r=R} + \frac{u_r}{R^2} T_{10} - \frac{\sigma_1}{R} + T_{10} \frac{\partial^2 u_r}{\partial x^2}, \end{cases} \quad (1)$$

bu yerda  $T_{20}$ -aylana birligiga ta'sir qiluvchi doimiy bo'ylama kuchlanganlik;

$T_{10}$ -transmural bosim  $p$  ga mos aylanma kuchlanganlik;  $M_0$ - qattiq materialning birlik massasi;  $k_1, k_2$ - elastiklik koeffitsiyentlari;

$C_1, C_2$  - qovushoqlik koeffitsiyentining bo'ylama va radial komponentlari;  $u_x, u_r$  - bo'ylama va radial siljish komponentlari;  $t$ - vaqt;  $\eta$ - suyuqlikning dinamik qovushoqlik koeffitsiyenti;  $h$ - devor qalinligi;  $R$ - quvurning tinch holatdagi radiusi;  $\mathcal{G}_x$  va  $\mathcal{G}_r$ - suyuqlikning bo'ylama va radial tezliklari;  $\sigma_1$  va  $\sigma_2$ - devor kuchlanishi;  $T_{10} = Rp$ - shaklda Laplas qonuniga muvofiq topiladi.

Suyuqlikning harakat tenglamasi kuchlanishlar ko'rinishida keltirilgan. Elastik qovushoq suyuqlikning devori deformatsiyalanuvchi kanal va quvurlardagi harakat differentsial tenglamalari sistemasi, devor deformatsiyasi tenglamasi, suyuqlikning harakati va reologik tenglamalari birgalikda sistema qilinib hosil qilingan. Bu tenglamalar sistemasini soddalashtirishda quvur radiusining yoki kanal enining uning uzunligiga nisbati va Reynolds soni yetarlicha kichik deb hisoblangan va shu orqali tenglamalar sistemasi chiziqilashtirilgan. Qo'yilgan masalalarni yechish uchun chegaraviy shartlar kanal yoki quvur devorida bo'ylama tezlik nolga teng, ko'ndalang tezlik devor deformatsiyasi tezligiga teng deb olingan. Quvur yoki kanaldagi suyuqlik oqimi bo'ylama o'qqa nisbatan simmetrik bo'lganligi sababli, oqim markazida suyuqlikning bo'ylama tezlik gradienti nolga teng va ko'ndalang tezlikning o'zi nolga teng deb olingan.

Dissertatsiyaning "**Devorlari deformatsiyalanuvchi ikkita parallel tekislik bilan chegaralangan kanaldagi elastik qovushoq suyuqlikning pulsi oqimini tadqiq qilish**" deb nomlangan ikkinchi bobida, devorlari deformatsiyalanuvchi kanaldagi elastik qovushoq suyuqlikning pulsi harakati qaralgan. Bunda kanal enining uning uzunligiga nisbati va Reynolds sonining yetarlicha kichikligi shartida devor deformatsiyasi, harakat va reologik tenglamalari chiziqilashtirilgan. Elastik-qovushoq suyuqlik harakatining chiziqilashtirilgan tenglamalar sistemasi ushbu ko'rinishga keltirilgan:

$$\left\{ \begin{array}{l} \frac{\partial u}{\partial t} = -\frac{1}{\rho} \frac{\partial p}{\partial x} + \frac{1}{\rho} \frac{\partial \tau}{\partial y}, \quad \frac{\partial p}{\partial y} = 0, \\ \frac{\partial u}{\partial x} + \frac{\partial \mathcal{G}}{\partial y} = 0, \quad \tau = \sum_{k=1}^{\infty} \tau_k, \\ \lambda_k \frac{\partial \tau_k}{\partial t} + \tau_k = \eta_k \frac{\partial u}{\partial y}, \end{array} \right. \quad (2)$$

Devorning harakat tenglamasi quyidagi ko'rinishda beriladi:

$$\frac{\partial h}{\partial t} = \frac{2h_0^2}{\delta E} \frac{\partial \bar{p}}{\partial t}, \quad (3)$$

bu yerda  $p$ - bosim;  $u, v$ - bo'ylama va ko'ndalang tezlik;  $\rho$ - suyuqlik zichligi;  $\nu$ - kinematik qovushoqlik koeffitsiyenti;  $t$ - vaqt;  $h$ - kanal kesimi uzunligi,  $E$ - kanal devorining elastiklik koeffitsiyenti,  $p_0$ - o'rtacha o'zgarmas

tashqi bosim,  $h_0$  - kanal kesimi uzunligi o'rtacha qiymati;  $\tau$  - kuchlanish;  $\lambda_k = \frac{\lambda}{k^\alpha}$ ,  $\eta_k = \frac{\eta}{\xi(\alpha)k^\alpha}$ ,  $\xi(\alpha) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{1}{k^\alpha}$ ;  $\lambda$  - relaksatsiya koeffitsiyenti;  $\eta$  - dinamik qovushoqlik koeffitsiyenti;  $\alpha$  - relaksatsiya vaqti spektri taqsimlanishini xarakterlovchi son;  $\xi(\alpha)$  - Riman dzetta funksiyasi.

Vaqt bo'yicha davriy ravishda o'zgaruvchi bosim gradientining ta'sirida bo'ladigan kanallardagi elastik qovushoq suyuqliklarning tebranma oqimi tadqiq qilingan. Kanalning kirish va chiqish qismlarida bosimning vaqt bo'yicha sinusoidal ko'rinishda o'zgarishi inobotga olingan holda bosim gradientining o'zgarishi quyidagicha aniqlangan:

$$\left(-\frac{\partial p(t)}{\partial x}\right) = \left(-\frac{\partial p_0}{\partial x}\right) + \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right)e^{i\omega t}. \quad (4)$$

Bu yerda  $\left(-\frac{\partial p_0}{\partial x}\right)$  - statsionar oqimdagi bosim gradienti;  $\left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right)$  - tebranma oqimda tebranish amplitudasining o'zgarishini ifoda qiluvchi bosim gradienti;  $\omega$  - tebranish chastotasi;  $t$  - vaqt.

Bosim gradientining o'zgarishi ikkita qismdan: ya'ni birinchi qismi o'zgarmas, ikkinchi qismi esa vaqt bo'yicha o'zgaruvchi davriy funksiyadan iboratligi inobotga olingan. Shu boisdan (4) tenglamaning yechimi ikkita funksiyalar yig'indisi shaklida ifoda qilingan:

$$u = u_0(y) + u_1(y)e^{i\omega t}, \quad \tau = \tau_0(y) + \tau_1(y)e^{i\omega t}, \quad \frac{\partial p(t)}{\partial x} = \frac{\partial p_0}{\partial x} + \frac{\partial p_1}{\partial x}e^{i\omega t}. \quad (5)$$

Bu holda yechimning birinchi hadiga mos keluvchi yechimlar statsionar oqimga, ikkinchi hadining haqiqiy qismiga mos keluvchi yechimlar tebranma oqimga mos keluvchi yechimlar bo'lishligi ko'rsatilgan. Bu yerda suyuqlikning statsionar oqimi Puazel oqimidan iborat ekanligi ko'rsatilib, elastik qovushoq suyuqlikning devori deformatsiyalanuvchi kanaldagi tebranma oqimi yangi masala sifatida shakllantirilgan. Kanal devorida suyuqlik bo'ylama tezligi nolga teng deb, ko'ndalang tezlik esa devor deformatsiyasining ko'ndalang o'q bo'yicha tezligiga tengligiligi orqali ifoda qilingan. Oqim bo'ylama o'qqa nisbatan simmetrik bo'lganligi uchun, kanal markazida bo'ylama tezlik gradienti va ko'ndalang tezlikning o'zi nolga tengligidan foydalanilgan. (2) tenglamalar sistemasi (5) eksponentsial almashtirishlarni qo'yish yordamida ikkinchi tartibli o'zgarmas koeffitsiyentli birjinslimas differensial tenglama ko'rinishiga keltirilgan va uning yechimi chegaraviy shartlardan foydalangan holda quyidagi ko'rinishda aniqlangan:

$$\frac{u(x, y, t)}{u_{1 \max}^0} = 2\left(-\frac{\partial \bar{p}_1(x)}{\partial x}\right) \left[ \frac{1}{i\alpha_0^2} \left( 1 - \frac{\cos\left(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0\left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}}\frac{y}{h}\right)}{\cos\left(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0\left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}}\right)} \right) e^{i\omega t} \right]. \quad (6)$$

Bu yerda

$$\alpha_0 = \sqrt{\frac{\omega}{v}} h_0, \quad \eta^*(i\omega) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{k^\alpha}{\xi(\alpha)(k^\alpha + \lambda i\omega)^2}, \quad v = \frac{\eta}{\rho}, \quad \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right) / \left(-\frac{\partial p_{10}}{\partial x}\right) = -\frac{\partial \bar{p}_1}{\partial x};$$

$$u_{1 \max}^0 = \frac{1}{2\eta} \left( \frac{p_1^0 - p_1^L}{L} \right) h^2 \text{ -- devori deformatsiyalanmaydigan kanalda qovushoq}$$

suyuqlikning statsionar oqimning maksimal bo‘ylama tezligi.

Bo‘ylama tezlik taqsimlanishi uchun aniqlangan (6) formulaning har ikkala tomonini  $-h$  - dan  $h$  - gacha integrallab va uni  $2h$  ga bo‘lib suyuqlikning o‘rtacha bo‘ylama tezligi uchun quyidagi formula hosil qilingan:

$$\frac{\langle u(x,t) \rangle}{\langle u_0 \rangle} = \text{real} \left( -\frac{\partial \bar{p}_1(x)}{\partial x} \right) \left[ \frac{1}{i\alpha_0^2} \left( 1 - \frac{\sin \left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right)}{\left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right) \cos \left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right)} \right) e^{i\omega t} \right]. \quad (7)$$

Bu yerda  $\langle u_0 \rangle = \frac{1}{3\eta} \left( -\frac{\partial p}{\partial x} \right)_0 h^2$  - devori deformatsiyalanmaydigan kanalda

qovushoq suyuqlikning statsionar oqimidagi o‘rtacha bo‘ylama tezlik. (7) tenglamadan bosim gradienti topilgan

$$\left( -\frac{\partial \bar{p}_1(x,t)}{\partial x} \right) = \langle u_1(x,t) \rangle \bar{Z}, \quad (8)$$

bu yerda

$$\bar{Z} = \left[ \frac{1}{i\alpha_0^2} \left( 1 - \frac{\sin \left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right)}{\left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right) \cos \left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right)} \right) \right]^{-1} \text{ deb belgilash kiritilgan.}$$

Hosil qilingan (8) tenglama ikki noma‘lumli tenglama bo‘lib, devor deformatsiyasini aniqlovchi yana bir tenglamani tuzish zarur. Devor deformatsiyasini aniqlovchi tenglama quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\frac{\partial \langle u(x,t) \rangle}{\partial x} = \frac{2h_0}{\delta E} i\omega \bar{p}_1.$$

ushbu ikkala tenglamani sistema qilib, bosim gradientini, suyuqlikning o‘rtacha tezligini topish uchun tenglamalar sistemasi hosil qilingan:

$$\begin{cases} \frac{\partial \langle \bar{u}_1(x,t) \rangle}{\partial x} = \frac{2h_0}{\delta E} i\omega \bar{p}_1, \\ \left( -\frac{\partial \bar{p}_1(x,t)}{\partial x} \right) = \langle u_1(x,t) \rangle \bar{Z}. \end{cases} \quad (9)$$

(9) tenglamalar sistemasidan foydalanib, bosimni va bo‘ylama o‘rtacha tezlikni topish uchun quyidagi ikki tenglama keltirib chiqarilgan:

$$\frac{d^2 \bar{p}(x)}{dx^2} - \frac{i\omega 2h_0}{\delta E} \bar{Z} \bar{p}(x) = 0 \text{ va } \frac{d^2 \langle \bar{u}(x) \rangle}{dx^2} - \frac{i\omega 2h_0}{\delta E} \bar{Z} \langle \bar{u}(x) \rangle = 0. \quad (10)$$

Keltirib chiqarilgan (10) tenglamaning yechimi kanalning kirish va chiqish qismlarida bosimning garmonik tebranishi berilganlik shartidan foydalanib,

quyidagi ko‘rinishda aniqlangan


$$\bar{p}(x,t) = \left[ \frac{p_1^0 \left( \text{Sh} \left( \sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L \left( \frac{L-x}{L} \right) \right) \right)}{\text{Sh} \left( \sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L \right)} + \frac{p_1^L \text{Sh} \left( \sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} \frac{x}{L} \right)}{\text{Sh} \left( \sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L \right)} \right] e^{i\omega t}, \quad (11)$$

$$\langle \bar{u}(x) \rangle = \frac{h_0^2}{3\eta} \frac{\sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L}{h_0} \times p_1^0 \left[ \frac{\text{Ch} \left( \sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L \frac{L-x}{L} \right)}{\text{Sh} \sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L} - \frac{p_1^L \text{Ch} \left( \sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L \frac{x}{L} \right)}{p_1^0 \text{Sh} \sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L} \right]. \quad (12)$$

Keltirib chiqarilgan (11) va (12) formulalarga asosan, bu formulalardagi  $\sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L$  argumentning mavhum qismi bosim puls to‘lqining tarqalish tezligini va haqiqiy qismi puls to‘lqining so‘nishini aniqlashi ko‘rsatilgan. SHunga asosan ushbu kompleks kattalikning  $\sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L$  mavhum va haqiqiy qismlarini ajratilib,

bosim puls to‘lqining tarqalish tezligi va puls to‘lqining so‘nishi ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Elastiklik koeffitsiyentining kichik qiymatlarida elastik qovushoq suyuqlikning Nyuton suyuqligi pulsli oqimidagi bosim puls to‘lqining tarqalish tezligi va puls to‘lqining so‘nish ko‘rsatkichlaridan farq qilmasligi ko‘rsatilgan.

1 rasmda elastik qovushoq suyuqligi pulsli oqimida, elastiklik koeffitsiyentining xar xil  $\alpha = 2; EL = 0.001; 0.01; 0.1; 0.5$  qiymatlarida, bosim puls to‘lqini tarqalish tezligining, tebranish chastotasi parametriga bog‘liq ravishda o‘zgarishi tasvirlangan. Rasmlardagi grafiklarni tahlil qilish orqali devori deformatsiyalanuvchi kanalda elastik qovushoq suyuqligining pulsli oqimida puls to‘lqini tarqalish tezligi tebranish chastotasi parametriga bog‘liq ravishda o‘zgarishi, Nyuton suyuqligidagi puls to‘lqinining tarqalish tezligidan farqli bo‘lib, tebranish chastotasi parametrining kichik qiymatlarida tezlikning o‘sishi Nyuton suyuqligi kabi o‘zgarsa, elastiklik koeffitsiyenti katta qiymatlarida puls to‘lqinining tarqalish tezlikda ko‘tarilish xolati ro‘y berishi ko‘rsatilgan.



**Rasm. 1.** Elastik qovushoq suyuqligi pulslı oqimida, elastiklik koeffitsiyentining  $\alpha = 2$ ;  $EL = 0.001$ ;  $0.01$ ;  $0.1$ ;  $0.5$  qiymatlarida, bosim puls to'qlini tarqalish tezligining, tebranish chastotasi parametrıga bog'liq ravishda o'zgarishi.


**Rasm. 2.** Elastik qovushoq suyuqligi pulslı oqimida, elastiklik koeffitsiyentining  $\alpha = 2$ ;  $EL = 0.001$ ;  $0.01$ ;  $0.1$ ;  $0.5$  qiymatlarida, bosim puls to'qlini amplitudasi o'zgarishidagi  $P/P_0$  kattalikning, tebranish chastotasi parametrıga bog'liq ravishda o'zgarishi.

Elastik qovushoq suyuqligi pulslı oqimida, elastiklik koeffitsiyentining  $\alpha = 2$ ;  $EL = 0.001$ ;  $0.01$ ;  $0.1$ ;  $0.5$  qiymatlarida, bosim puls to'qlini amplitudasi so'nish kattaligi ko'rsatkichining, tebranish chastotasi parametrıga bog'liq ravishda o'zgarishi 2 rasmda tasvirlangan. Rasmdan ko'rinadiki, elastiklik koeffitsiyentining  $\alpha = 2$ ;  $EL = 0.001$ ;  $0.01$ ;  $0.1$ ;  $0.5$  qiymatlarida, bosim puls to'qlini amplitudasi kamayishi ko'rsatkichining, tebranish chastotasi parametrıga bog'liq ravishda o'zgarishida Nyuton suyuqligidagi o'zgarishlarga nisbatan tebranish chastotasi parametrining birdan katta qiymatlarida o'sishni kuzatish mumkin.

Suyuqlik tebranma oqimidagi gidrodinamik qarshilikning tebranish chastotasi parametrıga bog'liq ravishda o'zgarishini tadqiq qilish oqim effektivligini amalga oshirishda muhim omillardan biri ekanligi ma'lum. SHu boisdan ushbu ishda tebranma oqimdagi gidrodinamik qarshilikning tebranish chastotasi parametrıga bog'liq ravishda o'zgarishini xarakterlash, bosim gradientining suyuqlik sarfiga nisbati orqali ifodalangan kattalikning o'zgarishi yordamida amalga oshirilgan. Bu nisbat quyidagicha ifodalangan:

$$\bar{z} = \left(-\frac{\partial p}{\partial x}\right) / R_0 < u > = \frac{i\alpha_0^2 (M_1 - i\bar{M}_1) \cos(M_1 - i\bar{M}_1)}{3((M_1 - i\bar{M}_1) \cos(M_1 - i\bar{M}_1) - \sin(M_1 - i\bar{M}_1))} = \frac{1}{3}(\bar{R} + i\bar{L}). \quad (13)$$

Bu yerda  $M_1$  va  $\bar{M}_1$  koeffitsiyentlar reologik murakkab suyuqlikning relaksatsiya koeffitsiyenti va tebranish chastotasi parametrıga bog'liq koeffitsiyentlardir. Nyuton suyuqligi uchun bu koeffitsiyentlar faqat tebranish chastotasi parametrıga bog'liq ravishda o'zgarishi e'tiborga olinib, quyidagi kattaliklar orqali aniqlangan:  $M_1 = \alpha_0 / \sqrt{2}$ ,  $\bar{M}_1 = \alpha_0 / \sqrt{2}$ . Aniqlangan (13) formula yordamida sonli hisob amallari bajarilib, Nyuton va reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimlari uchun gidrodinamik qarshilikning tebranish chastotasi parametrıga bog'liq ravishda o'zgarishi tadqiq qilingan.



**Rasm. 3. Hidrodinamik qarshilik  $\bar{R}$  va induktivlik  $\bar{L}$  ning elastiklik koeffitsiyenti  $EL=0,001$ ,  $\alpha=2$  bo'lgandagi qiymatida tebranishlar chastotasi parametri  $\alpha_0$  ga bog'liq ravishda o'zgarishi.**

**Rasm. 4. Hidrodinamik qarshilik  $\bar{R}$  va induktivlik  $\bar{L}$  ning elastiklik koeffitsiyenti  $EL=0,1$ ,  $\alpha=2$  bo'lgandagi qiymatida tebranishlar chastotasi parametri  $\alpha_0$  ga bog'liq ravishda o'zgarishi.**

Elastiklik sonining 0.05 dan kichik qiymatlarida elastik qovushoq suyuqliklarning tebranma oqimlaridagi gidrodinamik qarshilikning o'zgarishi Nyuton suyuqligidagi kabi o'zgarishi 3 rasmda ko'rsatilgan. Demak, bu holda elastik qovushoq suyuqliklarning tebranma oqimidagi gidrodinamik qarshilikning o'zgarishini aniqlashda Nyuton suyuqligi tebranma oqimidagi gidrodinamik qarshilik xarakteristikalaridan foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan. Tebranish chastotasi parametrining birdan katta qiymatlarida elastik qovushoq suyuqliklarning tebranma oqimida gidrodinamik qarshilik o'zgarishida kamayish holati sodir bo'lishi kuzatilgan (Rasm 4.). Hidrodinamik qarshilikning maksimal kamayish holati tebranish chastotasi parametrining  $2 \leq \alpha_0 \leq 4$  oralig'idagi qiymatlarga mos kelishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Devori deformatsiyalanuvchi silindrik quvurda elastik qovushoq suyuqlikning pulslı oqimi”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida elastik qovushoq suyuqlikning yetarlicha uzun silindrik quvurdagi kirish va chiqish qismlaridagi bosimlar farqi bir xil fazoda tebranadigan sinusoidal qonun bo'yicha o'zgargandagi tebranma oqimi qaralgan. Bunda  $x$  o'qi silindr o'qi bo'yicha yo'naltirilgan, quvur radius bo'yicha o'zgaruvchisi  $r$  orqali va quvurning o'rtacha radiusi esa  $R$  orqali belgilangan. Quvur uzunligi uning radiusiga qaraganda yetarlicha katta bo'lganligi sababli ko'ndalang tezlikning bo'ylama tezlikka nisbati va Reynolds soni yetarlicha kichik miqdor deb qaralgan. Bu hol uchun silindrik quvurda elastik qovushoq suyuqlikning tebranma harakatini xarakterlovchi differentsial tenglamalar sistemasi quyidagi soddalashgan ko'rinishda ifodalangan:

$$\begin{cases} \rho \frac{\partial \mathcal{G}_x}{\partial t} = -\frac{\partial p}{\partial x} + \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} (r \tau_{rx}), & \frac{\partial \mathcal{G}_x}{\partial x} + \frac{\partial \mathcal{G}_r}{\partial r} + \frac{\mathcal{G}_r}{r} = 0, \\ (p - p_c) = \frac{E \delta u_r}{R^2 (1 - \nu_1^2)}, \\ \tau_{rx} = \sum_{k=1}^{\infty} \tau_{k,rx}, \quad \lambda_k \frac{\partial \tau_{k,rx}}{\partial t} + \tau_{k,rx} = \eta_k \frac{\partial \mathcal{G}_x}{\partial r}. \end{cases} \quad (14)$$

Bu yerda  $\rho$  - zichlik;  $\mathcal{G}_x$ ,  $\mathcal{G}_r$  - bo'ylama va ko'ndalang tezliklar;  $p$ ,  $p_c$  - ichki, tashqi bosim;  $\tau_{rx}$  - urinma kuchlanishi;  $E$  - elastiklik koeffitsiyenti;  $u_r$  - ko'ndalang kesim bo'yicha quvur deformatsiyasi;  $\lambda_k = \frac{\lambda}{k^\alpha}$  - elastik suyuqlik relaksatsiya koeffitsiyenti;  $\eta_k = \frac{\eta}{\xi(\alpha)}$  - elastik suyuqlik dinamik qovushoqlik koeffitsiyenti;

$\xi(\alpha) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{1}{k^\alpha}$  - Riman dzetta funksiyasi;  $\delta$  - quvur devorining o'rtacha qalinligi;  $\nu$  -

Puasson koeffitsiyenti;  $t$  - vaqt;  $R$  - quvurning o'rtacha radius.

